

## **JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA YUZAGA KELUVCHI SUBYEKTIV MUAMMOLARNING TASNIFI**

**Norbutayev Samandar Abdubakirovich**

JXU magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida kuzatilishi mumkin bo'lgan subyektiv muammolarning nazariy jihatlari tahlil etiladi hamda uning tarkibiy qismi o'rganib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** Jamoat xavfsizligi, Jinoyat, Jinoyat-huquqiy institut, Huquqni muhofaza qilish organlari, Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, Zaruriy mudofaa.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье будут анализироваться теоретические аспекты субъективных проблем, которые можно наблюдать во время общественной безопасности, и ее компоненты будут изучены.*

***Ключевые слова:** общественная безопасность, преступность, преступное, уголовное учреждение, правоохранительные органы, необходимая защита, которая исключает преступники Закона.*

### **KIRISH**

Jamoat xavfsizligini ta'minlash har bir mamlakatning rad etib bo'lmaz vazifasi hisoblanadi. Bu jarayonda qator subyektiv muammolar vujudga keladi va ulardan biri zaruriy mudofaa hisoblanadi. Zaruriy mudofaa xususida qonunchiligimizda "Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi"[1]deb belgilangan.

Zaruriy mudofaa – bu ijtimoiy xavfli bo'lgan tajovuzdan qonuniy himoya qilish bo'lib, tajovuzchiga noilojlikdan zarar yetkazish orqali amalga oshiriladi hamda tajovuzning harakteriga va ijtimoiy xavfliligi darajasiga mos keladi.[2]

Huquq-tartibot organlariga zarur mudofaa choralarini zudlik bilan qo'llash zarurati ularning va boshqa shaxslarning hayotiga yoki sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazadigan vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Bunda shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hukumat vakillarining ushbu harakatlariga nisbatan shikoyat qilishlari mumkin va bu shaxsiy huquqlar doirasiga kiradi. Shunga ko'ra, zaruriy

mudofaa holati nafaqat ijtimoiy xavfli tajovuz, qonun himoyachisi yoki boshqa shaxsning hayoti uchun xavfli bo'lgan zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lgan paytdan boshlab, (balki bunday tajovuzning haqiqiy tahdidi mavjud bo'lgan paytdan) ya'ni tajovuzdan boshlab paydo bo'ladi deb tan olinishi maqsadga muvofiq.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Jinoyat huquqining asosiy institutlarini talqin qilishda klassik yondashuv tarafdorlari bo'lgan M.I.Yakubovich, V.F.Kirichenko va Ye.F.Pobegaylolar: zarur mudofaaning qonuniyligi uchun ikkita shart mavjud: tajovuz va mudofaa bilan bog'liq bo'lgan harakatlar deyilar.[3]

Tajovuzning haqiqiyliigi – huquq bilan himoya qilinadigan manfaatlarga zarar yetkazish xavfi mudofaalanuvchi shaxsning hayolida tug'ilganligi emas, balki ob'ektiv mavjudligini bildiradi. Bu zaruriy mudofaani hayoliy mudofaadan farqlash imkonini beradi.

Hayoliy mudofaa – taxmin etilgan tajovuzgacha haqiqiy ijtimoiy xavfli tajovuz bo'lmagan holda, shaxs uni mavjud deb xato taxmin etgan holda zarar yetkazilishi holatlari tan olinishi lozim.[4]

Biz yuqoridagi fikrga qo'shilmiz. Negaki, jamiyat uchun real xavf, asosan huquq-tartibot organlariga bog'liq ekanligi, zaruriy mudofaa institutining ishlashi uchun turtki beradi. Agar Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi) zaruriy mudofaa sharoitiga o'tish uchun barcha alomatlarga ega xavfli harakat sodir etilgan deb hisoblasa, kasbiy-huquqiy mahoratidan qat'i nazar, o'qotar qurol qo'llash uchun ob'ektiv vaziyat yetarli deb hisoblashi o'rinli bo'ladi.

Zaruriy mudofaa orqali insonning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish mumkinligi masalasi diqqatga sazovordir. Huquqshunos I.I.Sluskiyning fikricha: "Faqatgina insonning tanasi daxlsizligiga tajovuz qiladigan xatti- harakatlarda, zaruriy mudofaaga o'tish bilan himoyalaniish mumkin".[5] Biz huquqshunos V.F.Kirichenkoning fikriga qo'shilmiz. Negaki, u o'tgan asrning o'rtalarida inson sha'ni va qadr-qimmatini hech qanday ko'rsatmalarsiz himoya qilish kerakligini aytgan, chunki ular har doim sudda tiklana olmaydi.[6] Tadqiqodchi olim D.A.Garbatovich ham bu fikrga qo'shilgan holda, "Inson sha'ni yoki qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan himoyalaniish, zaruriy mudofaa institutining qonuniylik sharoitlarini belgilab beradi",[7] deydi. U sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish uchun zararning mohiyatini aniqlashda, sog'liqqa qasddan zarar yetkazish, haqorat qilish, tuhmat qilish, shu jumladan maxsus qurbonlarga (sudyalari, harbiy

xizmatchilar va davlat xizmatchilariga) qarshi jinoyatlar uchun sanksiyalarni taklif qiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Zaruriy mudofaaning ijtimoiy va huquqiy mohiyatining buzilishi, qonuniy manfaatlar va himoya qilinadigan imtiyozlar nisbati ahamiyatini mensimaslik, masalan, huquq-tartibot organining huquqbuzarni jarohatlash bilan bog'liq javob harakatlarida sud xatolariga va huquq himoyachilarining manfaatlari buzilishiga olib keladi.[7]

Huquqbuzar jinoiy javobgarlik yoshiga yetmaganligi sababli jinoyatning sub'ekti bo'lmasa, ruhiy kasallikka, shaxsiyatning buzilishiga duchor bo'lgan bo'lsa yoki atrofdegilar uchun xavfli harakatlarni sodir etsa (sodir etishga urinsa), jiddiy oqibatlariga olib keladigan zararning ro'yobga chiqmasligi uchun, masalan, muhim davlat ob'ektlariga (aeroport, temiryo'l, metro va x.k.) yetishi mumkin bo'lgan talofatning oldini olish maqsadida nosog'lom shaxs sog'lig'i va hayotiga jiddiy zarar yetkazish mumkin deb hisoblaymiz. Yuqoridagi holat jinoiy qonunchiligimizda ham belgilab berilgan.

Bu yerda qonun, aqldan ozgan odam har jihatdan xavfli tajovuz deb e'tirof etish mumkin bo'lgan harakatni sodir etganligi (sodir etishi mumkinligi), shuningdek o'z xatti-harakatlari to'g'risida ma'lumot bera olmasligi va jamiyatga yetkazishi mumkin bo'lgan talofatining mohiyatini anglamasligi sababli zaruriy manfaatlarning buzilishi oldini olish maqsadida, unga zarar yetkazishga imkon beradi. Ushbu shaxsda "Jinoyat" uchun javobgarlik mavjud emas.

Bizningcha, muayyan jamiyat yoki shaxsiy manfaatlariga zarar yetkazish, zaruriy mudofaa huquqi vujudga kelishining asosi hisoblanadi. Bundan tashqari, davlatni muhim manfaatlariga tajovuz qiluvchi jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va bunga urinishni o'z vaqtida to'xtatib qolishda, bir necha daqiqalar, hatto soniyalar bilan hisoblashish lozimligini ham yodda tutish kerak. Jinoiy huquqbuzarliklar va ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibini taqqoslasak, ularning farqlari asosan huquqbuzarliklar uchun ahamiyatli bo'lgan zarar (talofat) miqdoridan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin. Masalan, Jinoyat kodeksining 266-moddasi (Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish)ni va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 125-moddasi (Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish)ni misol keltirishimiz mumkin. Ushbu ikki huquqbuzarlik vaqtida transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish natijasida sog'liqqa yetkazilgan zararning og'irlik darajasi yoki boshqa manfaatlariga yetkazilgan zarar bilan farqlanadi. Ushbu dalil sud-tibbiyot ekspertlari tomonidan

aniqlanadi. Bu yerda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar uchun ham zaruriy mudofaa choralari qo'llash mos keladi. Bu zamonaviy huquq sharoitida juda muhimdir. Bir qator asarlar mualliflarining fikricha, zaruriy mudofaaga o'tishda "Raqibning birinchi zarbasini kutmaslik kerak, chunki u birinchi zarba bilan shu qadar kuch sarflay oladiki, himoyachi qarshilik ko'rsatishni unutadi" deydilar. Biroq, boshqalar bu so'zlardan oldin: "Agar qo'rquv bosib, uni yengishning iloji bo'lmasa, u holda ..." va yuqoridagi so'zlardan kelib chiqadigan haqiqatni chalkashtirmaslik kerak.[1]

Biz yuqoridagi fikrga qo'shilamiz. Negaki, bu paytda huquqni muhofaza qilish organi chuqur hissiy hayajon ta'sirida sustkashlikka yo'l qo'yishi yanada og'ir oqibatlarni yuzaga keltirishi ehtimoli mavjud. Buyruq yoki boshqacha tarzda vazifani ijro etish holatida shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek mansab vazifalarini qonundan bajarishi tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi. G'ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni yoxud mansab vazifasini bajarmagan yoki buzgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shaxsning amalda sodir etgan qilmishida boshqa bir jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lsagina, u javobgarlikka tortiladi.[2]

Buyruq, farmoyish yoki xizmat majburiyatlarining qonuniyligini aks ettiruvchi birinchi belgilardan biri uning rasman muvofiq kelishidir. Shuningdek, "Farmon", "Farmoyish", "Ko'rsatma" ham berilishi mumkin. Buyruq vakolatli shaxsning ijro etish majburiyati yuklangan shaxsga bergan ma'lum bir harakat (harakatsizlik)ni bajarish haqidagi qonun, qonun osti hujjatlarga yoki boshqa ichki idoraviy hujjatlarga asoslangan talabidir.[3]

Huquqshunos A.A.Aryamovning pozitsiyasi bizda qiziqish uyg'otdi: "Har qanday holatda ham buyruqning to'g'ri bajarilishi, javobgarlikni ijrochidan buyruq bergan rahbarga "o'tkazilishi" kerak. Shubhasiz, noqonuniy buyruq yoki ko'rsatmani bajarilmaslik mumkinligi to'g'risidagi qoida har doim ham intizomiy huquq bilan bog'liq bo'lmasligi kerak".[4]

Yuqoridagi mulohazalarga qarab, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Huquq-tartibot organlarida xizmat qilayotgan shaxslar o'z rahbarining buyruqlariga ko'r-ko'rona itoat qilmasliklari lozim. Agar mansabdor shaxs majburiy buyruqqa binoan o'z vakolatlaridan chetga chiqsa, lekin buni anglamasa, jinoyat tarkibining yo'qligi sababli rasmiy vakolat doirasidan chetga chiqqanlik uchun javobgarlik to'g'risida savol tug'ilmaydi. Agar biror shaxs noqonuniy buyruqqa binoan o'z xizmat vakolatidan buni anglagan holda oshib ketgan bo'lsa, buning uchun umumiy asosda javobgarlik yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib, quyidagi xuloslarga kelish mumkin:

*Birinchidan*, qonun hujjatlari va sud amaliyoti zarur sharoitda kuch, jumladan o'qotar quroldan foydalanish va qo'llash huquqiga ega huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarini (harbiy xizmatchilarini) qonuniy manfaatlarini birinchi navbatda hisobga olishi shart;

*Ikkinchidan*, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy qonunchiligida huquq-tartibot organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha asosan nazariy xarakterdagi tavsiyalar yetarli darajada shakllantirilgan bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarning qonuniylik asoslari va chegaralarini tavsiflovchi belgilarni izohlash orqali;

b) qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan sharoitlarda yetkazilgan zararining tasnifi orqali;

v) qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarni aniqlab olish orqali.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda, quyidagi takliflarni ilgarisurdik:

1. Favqulodda zarurat chegarasidan oshganlik uchun jinoiy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismida zaruriy mudofaani yoki jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish choralari ko'rishga o'xshash maxsus qoidalar mavjud emas (Jinoyat kodeksining 100-101, 107-108-moddalari). Bizning fikrimizcha, maxsus qism tegishli imtiyozli me'yorlar bilan to'ldirilishi kerak.

2. Jinoyat kodeksi 40-moddasining 3-hatboshini quyidagi norma bilan to'ldirilishi lozim: "Bunday zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik, qonunga xilof buyruq yoki farmoyishni bergan shaxs zimmasiga yuklanadi".

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, huquq-tartibot organi harbiy xizmatchi va xodimlari jamoat xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarni himoya qilish mobaynida o'z vakolatlari doirasida kuch ishlatishi, xususan, o'qotar quroldan foydalanishi va qo'llashi hanuzgacha munozaralarga sabab bo'moqda. Bunga asosiy sabab sifatida O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida mavjud bo'lmagan ayrim masalalarning saqlanib qolganligini ko'rsatish mumkin. Jumladan, biz yuqorida sanab o'tgan takliflarni tegishli huquqiy xujjalarga kiritilishi huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyat-huquq himoyasi rivoji hamda hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan bir qator muammolar o'z yechimini topishi uchun xizmat qiladi.



## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-4075-son. 24.12. 2018 yil.
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.07.2018 y. (03/18/485/1552-son). Manba: <https://lex.uz/>.
3. Rustambaev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-tom. Umumiy qism. Jinoyat haqida ta’limot. “Toshkent”.: 2018 yil. 378-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Umumiy qism. Toshkent.: “Adolat”. 2018 yil. 204-bet.
5. Камбарова, Д. Ю. (2022). ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ПРОЦЕССЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ. *ВАРҚАРОРЛИК ВА ЙЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 232-234.
6. Kambarova, D. (2020). FACTORS OF ENSURING AESTHETIC PERFECTION OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 284-286).
7. Qambarova, D. Y. (2022). INTERACTIVE METHODS OF ENGLISH TEACHING IN HIGHER EDUCATION. *Oriental Journal of Education*, 2(1), 1-7.
8. Nodira, U. (2022). THE ENHANCEMENT OF METHODOLOGY IN THE MODERN EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(11), 31-33.
9. Жамолов, А. Ш., & Ахмедова, Н. А. (2022). *Psychological aspects of commitment treatment Of patients with rheumatoid arthritis* (Doctoral dissertation, Ташкент).
10. Kosimova, M. U. (2022, May). TA’LIMDA PLAGIATNI OLDINI OLISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 188-190).
11. Umaraliyevna, K. M. The History of Word Borrowing Process in the Uzbek and English Languages. *JournalNX*, 105-107
12. Aliyeva, N. (2021). Similarities And Distinctive Features Of Uzbek, Russian And English Phrases. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 315-321.
13. Aliyeva, N. (2021). СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕМ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 3(8).

14. Akbarova, R. A. (2019). TEACHING ENGLISH THROUGH STORY TELLING IN ELEMENTARY CLASSES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 297-304.
15. Ruzieva, K., & Abdurakhmonov, V. (2022). IN THE ENGLISH LINGUOCULTURE THE CONCEPT OF "CHILD" AND THEIR MEANS.
16. Салаева, М. (2009). Периодизация истории узбекской педагогики как педагогическая исследовательская задача. *Современные гуманитарные исследования*, (6), 164-165.
17. Salaev, M. S., & Khaydarov, M. E. (2020). Improvement of theoretical and methodological bases of periodization of the history of uzbek pedagogy. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(9), 479-488.
18. Касимова, М. Б., Ахмедова, Н. А., Махаматходжаева, Х. Б., Шарапов, З., Худойназаров, А., & Кадирова, Ш. (2022). Erap-1 and il-23r as a leading genetic predictors of development of ankylosing spondyloarthritis.
19. Yuldasheva, D. K. (2019). COMMUNICATIVE APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (11), 50-52.
20. Akborvna, B. B., & Mo'yudinjanovna, Y. D. (2021). Comparative Analysis of Uzbek, English and Russian Folk Fairy Tales. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 1(5), 388-392.
21. Burtabaeva, B. A., & Yuldasheva, D. M. (2020). VARIOUS WAYS OF TEACHING WRITING. *Проблемы педагогики*, 13.